

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

YOSHLAR ORASIDA KITOBXONLIK TARG‘IBOTI VA KUTUBXONAGA JALB ETISH METODLARI

Karimov Shohruh Shuhrat o‘g‘li
Qarshi davlat universiteti
3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada, yoshlar orasida kitobxonlikni rivojlantirish, ularning kutubxona bilan aloqasi va kitobxonlar bilan ishlash usullari haqida so‘z yuritiladi.

Annotation: In this article, discusses the development of reading among young people, their connection to the library and their methods of working with readers.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы развития чтения у молодежи, ее связь с библиотекой и их методы работы с читателями.

Kalit so‘zlar: kitob, risola, varaqa, nodavriy nashr, targ‘ibot, metod, Avesto, reklama, plakat, Strategiya, ko‘rgazma, kutubxona, Internet, vertual

Keywords: book, pamphlet, leaflet, non-periodic publication, propaganda, method, Avesta, advertisement, poster, Strategy, exhibition, library, Internet, vertual

Ключевые слова: книга, брошюра, листовка, непериодическое издание, пропаганда, метод, Авеста, реклама, плакат, стратегия, выставка, библиотека, Интернет, вертуаль

Bugungi kunda texnikaning taraqqiy etishi va virtual olamning shiddat bilan shakllanishi barcha sohalarda mehnat unumdorligini oshirib bormoqda. Birgina kutubxona ishida internet, zamonaviy texnik vositalar yordamida kitoblarni elektron formati yaratilishi va ularni masofadan turib uzatilayotganligi bu qog‘ozga bo‘lgan talabni kamaytirish bilan birga, vaqtdan yutish imkonini ham yaratmoqda. Shuningdek, internet orqali ma‘lumotlarni almashish, ularning yangilari bilan taqqoslash ham kutubxonachilik ishida sezilarli darajada ish unumdorligini oshirmoqda. Ammo shuni unutmaslik kerakki, internet va virtual olam shundayin rivojlanib ketdiki, natijada yoshlarning kitobga bo‘lgan talabi, kutubxonaga borishga erinishlari kabi salbiy oqibatlar ham yuzaga kelayotganligini ta‘kidlab o‘tishimiz kerak. Bu esa o‘z navbatida sohada ish olib borayotgan xodimlar oldiga birmuncha qo‘shimcha vazifalarni keltirib chiqarmoqda. Kutubxonaga yoshlarni qanday jalb etish mumkin? Axborot va texnika taraqqiy etgan davrda yoshlarda bosma kitoblarga bo‘lgan mehrni qanday shakllantirish kerak? Kabi savollarni yuzaga keltirmoqda.

Eng avvalo mazkur savollarga javob toppish uchun kutubxona hodimi bilimli, yaratuvchanlik qobiliyatiga ega, kitobxonlar bilan ishlay oladigan inson bo‘lishi lozim. Yoshlarni kutubxonaga jalb etishdan oldin kutubxona fondidagi adabiyotlarni o‘rganish, yoshlar qiziqishini hisobga olib, mavjud adabiyotlarni mazmun jihatidan joylashtirishi, estetik did bilan tartibga keltirishi kerak. Bundan tashqari xodim kutubxonadagi mavjud texnik buyumlardan foydalanishi va ularni amalda qo‘llay bilishi lozim.

Ma‘lumki, kitob kutubxonaning asosiy qismi bo‘lib, u arabchadan tarjima qilinganda yozilgan, muqovalangan asar degan ma‘noni anglatadi. Kitob bu axborotlarni g‘oya, obraz

bilimlarni saqlash va tarqatish, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy, estetik qarashlarni shakllantirish vositasi ya'ni bosma yoki yozma sahifalar to'plamidir. Lekin har qanday bosma nashr kitob hisoblanavermaydi. Xalqaro statistikada YUNESKO tavsiyasiga ko'ra hajmi 48 sahifadan kam bo'lmagan, taboqlab tikilgan nodavriy nashrni, shartli ravishda, kitob deyish qabul qilingan. Kutubxonada kichik hajmdagi asarlar, kitobchalar ham mavjud. Agar bosma nodavriy nashr 4 sahifadan ko'p, ammo 48 sahifadan kam bo'lsa u risola hisoblanadi. Varaqalar esa 1 sahifadan 4 sahifagacha bo'lishi mumkin. Umumiy qilib aytganda ular asosan sahifalari orqali ajratiladi.

Yurtimiz hududida qadimdan ma'naviyat mavjud edi. "Avesto" asarining Iskandar Zulqarnayn istilochilik davriga qadar to'liq holda yaxshi saqlangani, keying davrlarda ham Ibn Sinoning Buxoroning Somoniylar sulolasi kutubxonasidan foydalanganligi, Amir Temur va Temuriylar davridagi kitob va kitobat ishiga e'tibor O'zbekiston Respublikasida har davrda kitobga bo'lgan munosabat yuksak darajada bo'lganligidan dalolat beradi. Bugungi davrda ham yoshlarni kutubxon qilish maqsadida turli tadbirlar va tanlovlar o'tkazilib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida 12-sentabr 2023-yil PF-158-sonli Farmoni 100 ta maqsaddan iborat bo'lib uning 39-maqsadi O'zbek va jahon adabiyoti durdonalarini keng ommalashtirish, jamiytda kutubxonlikni hamda aholiga axborot-kutubxona xizmatini ko'rsatishni rivojlantirish etib belgilandi. Bu shu sohada faoliyat yuritayotgan hodimlar uchun keying istiqbolli vazifalarni ko'rsatib berdi. O'zbekiston kutubxon yoshlarini 2030-yilga qadar 5 million nafarga yetkazish uchun qaysi ishlarga e'tibor berishimiz kerak, degan savol paydo bo'ladi.

Har bir sohada innovatsion yondashuv orqali yangiliklar yaratish mumkin. Kutubxonada xodimi o'z nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda kutubxonaga kutubxon yoshlarni jalb etadi. Targ'ibot ishlariga alohida e'tibor berish va ularning sonini oshirish, sifatli o'tkazish bu belgilangan maqsadga erishishimizda yordam beradi. Kitob targ'ib qilishning og'zaki, ko'rgazmali va kompeleks usullari mavjud bo'lib, hodim hududidagi axolining qobiliyatini hisobga olgan holda o'ziga keraklisini tanlaydi. Kutubxonada hodimi kitob targ'ib etishda ko'rgazmali vositalardan, reklama va plakatlardan samarali foydalanishi lozim. Chunki ko'rgazma bu insonning diqqatini tortadi va tassavvur qilishiga yordam beradi. Shuningdek kitob targ'ibotida mavzuni tanlashda lohida e'tibor qaratish lozim. Mavzu qanchalik chiroyli tanlansa, kutubxonni shunchalik o'ziga torta olishi mumkin. Reklama va plakatlar esa kitob haqida aholiga tez xabar berish imkonini yaratadi.

Kutubxonaga jalb etishning yana bir samarali usuli bu metodlardan foydalanishdir. Yoshlarni kutubxonaga jalb etishda ularning qiziqishlarini hisobga olish bu kutubxonada xodimlariga qo'yilgan vazifani bajarishda asosiy rol o'ynaydi. Metodning turli shakllari va vazifalaridan keraklisini ajrata olish muhim jarayon bo'lib, kutubxonada hodimi metodlarning asosiy jihatlarni hisobga olgan holda ish yuritadi.

Kitobxonlarni o'rganish metodikasi

Statistik usul	Kuzatuv usuli	Suhbat usuli	Anketa va Intervyu usuli	Eksprement usul
----------------	---------------	--------------	--------------------------	-----------------

Bu metodlar orasida kuzatish metodi barcha metodlarni bog'lab turadi. Kuzatish orqali yoshlar bugungi kunda nimaga qiziqadi? Ularning talabi qaysi janrdagi adabiyotlarga qaratilgan? Ular hajman qanday kitoblarni tez-tez olib o'qiydilar? Shu kabi bir qancha savollarga javob topish mumkin. Metodlar yoshlarni kutubxonaga jalb etish uchun rejalar tuzishda katta yordam beradi. Odatda, kutubxonada xodimlari kitob ko'rgazmasi yoki tadbirlar o'tkazish orqali yoshlarni

kutubxonaga jalb etmoqchi bo'ladilar. Kutubxonaga jalb qilish uchun bolani yoshligidan kitobga qiziqtirish, yangicha noana'naviy usullarni olib borish mumkin. Bugungi davrni hisobga olgan holda bu ana'naviy usullardan farqli ravishda yangi usul ishlab chiqish kerak. Chunki bolalar yangilikni tez ilg'ab olishlari va o'yin usulidagi bellashuvlarga ishtiyoqlari baland bo'lishi bilan boshqa yoshdagi insonlardan ajralib turishadi.

Kutubxona xodimi mustaqil ravishda bir qancha metodlarni tanlab, ish ko'rishi, yangi usullarni qo'llagan holda yosh kitobxonlarni kutubxonaga jalb etishi va yosh kitobxonni o'ziga torta olishi kerak. Kutubxona xodimi nafaqat psixologik jihatdan yetuk shaxs, kerak bo'lganda pedagogik yondashuv bilan ham ish olib borishi lozim. Eng avvalo bola tarbiyasi va uni kitob bilan do'st bo'lishini ta'minlashda bolaning qobiliyati, yoshini hisobga olib ish qilish maqsadga muvofiq. Chunki kitob har bir muammoda yechim topib beruvchi, hayotni idrok qildiruvchi, bolada mehr-muhabbat tuyg'ularini, mehnatsevarlikni uyg'otuvchi ishonchli do'st hisoblanadi. Mazkur ishda mahalla, ota-ona, pedagog va kutubxona hodimlari hamkorlikda ish bolib borishi muhim. Chunki bola tarbiyasi uchun har bir inson mas'ul hisoblanadi.

Yoshlarni kitob bilan do'st bo'lishlari va ularni kutubxona bilan bog'lashda yangi usullardan foydalanish mumkin. Bu borada sizga "Chaqqon kitobsevarlar" usulini tavsiya etamiz. Mazkur usulni boshlang'ich ta'lim ustozlari bilan hamkorlikda tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Chunki undan ko'zlangan maqsad yosh o'quvchilarda kitobga bo'lgan muhabbatni uyg'otish va maktab kutubxonasi bilan bog'lashdir.

Bunda asosan 3-4 sinf o'quvchilaridan iborat kamida 2 ta guruh shakllantiriladi. Guruhdagi a'zolar soni 5tadan 10tagacha bo'lishi mumkin. Shartlar bolaning jismonan va aqlan qobiliyatini hisobga olgan holda tuziladi. Mazkur baxslarni nazorat qilish uchun hakamlar saralab olinadi va vaqt belgilanadi.

1-shart. Kim chaqqon. Bunda o'quvchilar pufaklarni shishiradilar va unda o'qigan ertak, hikoyalarini nomini, muallifini qahramonlarini yozib chiqadilar
Bu shart orqali bolaning chaqqon harakatlanishi shakllantiriladi.

2-shart. Sezgir bola. Jamoa a'zolari ko'zlari bog'liq holda jonivorlar (yoki ertak qahramonlari) haykalchalarini qo'llari bilan ushlaydilar va ularni nomini topadilar.
Bu shart orqali bolaning sezgirlik darajasi aniqlanadi.

3-shart. Nishonga ol. Bunda jamoa a'zolari 2-5 metr naridagi nishondagi buyumlarni (kamon yoki koptokcha orqali) nishonga tekkizishlari va undagi topishmoqlarni topishlari kerak bo'ladi. Bu baxsda 5-10 ta topishmoq tavsiya etiladi. Topishmoqlar kutubxonada mavjud kitoblar ichidan tuziladi.
Bu shart orqali bolaning aniqlik va topqirlik darajasi sinovdan o'tkaziladi

4-shart. O'zingni namoyon qil. Bu erkin mavzu. Unda jamoa a'zolari o'zlari o'qigan ertak, hikoya, she'rlaridan parchalar, shuningdek iqtidorli bolalar o'zlarining ijod namunalarini taqdim etadilar.
Bu shart orqali bolaning imkoniyatlari, qobiliyatlari aniqlanadi.

Har bir shartga 5-10 daqiqa vaqt ajratiladi. Shartlar tugagach hakamlar tomonidan umumiy ballar e'lon qilinadi. Faol o'quvchilarga kitob sovg'a qilinadi.

Mazkur shartlar orqali bolalarda sof raqobat tuyg'usini uyg'otish, ulardagi jismoniy va aqliy qobiliyatlarini yuzaga chiqarish, imkoniyatlarini amalda qo'llay olishlarini tushunishlari bilan birga har bir ishda kitobning o'rni borligini anglatish muhim jarayondir. Bu kabi bahslar yosh kitobxonlarda kutubxona va kitoblarga bo'lgan munosabatni ijobiy tomonga o'zgartirib, ular kitoblar eng yaqin do'st degan xulosaga kela olsagina ko'zlangan maqsadga erishish uchun oldinga qadam tashlangan hisoblanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, har bir davrda kitobga bo'lgan talab yuqori bo'lgan. Hayotni tezroq anglashda kitob muhim vosita hisoblangan.

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kutubxonashunoslik ishining nazariyasi va tarixi / kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma/ A.I.Kormilisin, M.M.Rasulov, S.X.Davlatov. T – 2003
2. Bibliografiya (umumiy bibliografiya) / madaniyat, san'at va pedagogika kollejlari uchun o'quv qo'llanma/ Z.Berdiyeva, H.Mamatraimova, T.Zokirova. T – 2014
3. Kutubxonashunoslik / kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma/ Z.Sh.Berdiyeva. T -2013
4. PF-158-сон 11.09.2023. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida
5. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>